TA’LIMDAGI YANGI ISTIQBOLLAR: O‘QUVCHILARNI PEDAGOG KASBIGA TIZIMLI TAYYORLASH IKONIYATLARI

Nurumbekova Y.A.,
Guliston davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, dotsent
nurumbekova72@gmail.com
Nazarov.K.B.,
Guliston sh. 18-maktab direktor o ‘rinbosari

Annotatsiya: ushbu tezisda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlashda “Pedagogk snflar”ni faolyati va o‘zga xos xususyatlari bayon qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: o‘quvchi, o‘qituvchi, pedagogika, “hayot maktabi” dastur, pedagogk sinf, ta’lm, tarbya, kasbga yo‘naltirish, tanlash, dars.

Аннотация: в тезисах описываются деятельность и особенности «Педагогических классов» в целевой подготовке учащихся общеобразовательных учреждений к профессии учителя и обеспечении трудоустройства выпускников.

Ключевые слова и фразы: ученик, учитель, педагогика, программа «Школа жизни», педагогический класс, образование, обучение, профориентация, отбор, урок.

Abstract: this article describes the activity and specific features of "Pedagogical Classes" in the purposeful preparation of students of general secondary educational institutions for the pedagogical profession and ensuring the employment of graduates.

Keywords and phrases: student, teacher, pedagogy, "School of Life" program, pedagogical class, education, upbringing, career guidance, selection, lesson.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.04.2024 yildagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 242-son qarori qabul qilindi. Mskur qarorga asosan 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda har bir viloyatda bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 10-11-sinf o‘quvchilarini pedagog kasbiga tizimli tayyorlash uchun pedagogik sinflar tajriba-sinov tariqasida tashkil etildi.

Pedagogk snflarda ta’lim samaradorligini oshirrsh maqsadida tegishli o‘n to‘rtta hududdagi pedagogika oliy ta’lim muassasasalar professor o‘qituvchilari blan xamkorlkda, illg‘or xorijiy tajribalar asosida pedagogik sinflar uchun alohida o‘quv dasturlari tayyorlanib aloxida o‘quv dastur ishlab chiqildi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetini bir guruh pedagog olimlari pedagogik sinflari tashkil etilgan maktablar va biriktirilgan pedagogika oliy ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish ularga metodik yordam ko‘rsatish sohasda samaral ishlarn amalga ishirmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik sinflarni tashkil etish va bitiruvchilari bandligini ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. U

quyidagilarni nazarda tutadi: pedagogik sinflarni tashkil etish tartibi; maktablar va pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari hamkorligi; pedagogik sinflar bitiruvchilariga tegishli kasb bo‘yicha ishlash huquqini berish[3]

Davlatimiz tomonidan maktabgacha va maktab ta’limi tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalar pedagoglik kasbini tanlamoqchi bo‘lgan yuqori sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Shu kunlarda ta’lim tizimida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar Pedagogika oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining shaxsiy va kasbiy sifatlariga ham yuqori talablarni qo‘ymoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining qiziqishlari va kasbiy layoqatini aniqlash, ularni kasbga yo‘naltirish maqsadida so‘rovnoma va test o‘tkazish hamda natijalar asosida o‘quvchilarning qiziqishi hamda layoqatiga ko‘ra kasblarga, jumladan, pedagogika sohasiga yo‘naltirish vazifasini amalga oshirish masalasi dolzarbdir.

O‘quvchilarning qiziqishi hamda layoqatiga ko‘ra kasblarga, jumladan, pedagogika sohasiga yo‘naltirish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasining 2024 yil 6-yanvardagi 03-RA 1-311-son topshirig‘i ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Ushbu reja dastur asosida 2024 yilning 11-19 may kunlari respublikamizning barcha oliy ta’lim muassasalarining 16 nafar yetakchi professor-o‘qituvchilaridan iborat deligatsiya a’zolari “Xayot maktabi” dasturi doirasda Rossiya davlatining Tatariston Respublikasida 10 kunlik xizmat safarida bo‘lib qaytishdi. Tatariston Respublikasida xizmat safari jarayonida filologiya fanlari doktori, professor E.V.Gafiyatova tomonidan tayyorlanga “Xayot maktabi” dasturi asosida tashkil etilgan pedagogik sinflarning mazmun moxyati, tashkil etish jarayoni, nazariyasi va amaliyoti bilan tanishdik.

Amaliyot dasturi doirasida ishtirokchilarga pedagogk sinflarda dars mashg‘ulotlarini tashkil etishga oid ma’ruzalar, seminarlar, mahorat darslari o‘tkazildi.

“Darslar kecha, bugun, ertaga” mavzusidagi davra suhbatida ta’lim tizimidagi dolzarb masalalar faol muhokama qilindi. KFUning Filologiya va madaniyatlararo aloqa institutining o‘quv-uslubiy ishlar bo‘yicha mutaxassisi L.A. Lisenkova amaliy tajribalari bilan o‘rtoqlashdi. Professor o‘qituvchilarimiz Kazan shahar umum ta’lim maktablari bo‘limi boshlig'i I.M. Urazov, Kazan shahri Vaxitovskiy tumanidagi 18-sonli ingliz tilini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan umumiy o‘rta ta'lim maktabi direktori R.R. Badrieva, Qozon shahrining 119-sonli umumta’lim maktabi direktori T.P. Fadeeva, Qozon shahrining Novo-Sabinskiy tumanidagi Alohida fanlarni chuqur o‘rganadigan 143-sonli o‘rta maktab direktori L.M. Kanashina, KFU Filologiya va madaniyatlararo aloqa instituti, “Qozon pedagogika” kolleji, 80-sonli o‘rta umumta’lim tatar-rus maktablari yetakchi o‘qituvchilari bilan dastur doirasida tajriba almashindi.

[3] https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/maktablarda_pedagogik_sinflar_tashkil_etiladi

Safar davomida pedagogik sinflarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishdilar. K. Nasyri nomidagi fanlarni chuqur o‘rganish maktabi xamda, Tatariston Respublikasi Sabinskiy munitsipal okrugining umumiy ta'lim muassasalari bo‘lim boshlig'i I.F. Shokirov o‘z hamkasblari bilan dars mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish sirlari bilan o‘rtoqlashdi. Ochiq darslar, kasbiy testlar va treninglar Tatariston Respublikasi Sabinskiy munitsipal tumanidagi Sabinsk o‘rta maktabida (direktor: D.N. Yarullin), iqtidorli bolalar uchun maxsus fanlarni chuqur o‘rgatish o‘rta maktab-internatida (direktor: N.I. Davletshin), Tatariston Respublikasi Sabinskiy munitsipal tumani Kildebyak o‘rta maktabi" (direktor: N.M. Mavlitov) tajribalari bilan yaqindan tanishdilar.

O‘zbekistonlik hamkasblar pedagogik sinflar faoliyati yuqori saviyada tashkil qilinganligi va dastur mazmunini yuqori baholadilar, samimiy qabul uchun tashkilotchilarga minnatdorchilik bildirdilar hamda pedagogik sinflarni tashkil etish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelgusida hamkorlik qilish bo‘yicha fikr almashdilar. Dasturni amalga oshirish natijasida Tatariston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalari o‘rtasida ta’lim sohasida hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Professor o‘qituvchilar delegasyasi “Rossiya-Islom olami: Qozon forumi 2024” XV xalqaro forumida ham ishtirok etishdi.

O‘zbekston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 29 apreldagi 242-son qaroriga asosan har br viloyatda pedagogik oliy ta’lim muassasalari bilan xamkorlikda pedagogik sinflar tashkil etish rejalashtirilgan. Sirdaryo viloyatida Guliston davlat pedagogika instituti bilan xamkorlikda 10-11-sinf o‘quvchilarini pedagog kasbiga tizimli tayyorlash maqsadda tajriba-sinov tariqasida Guliston shaxar №18 umumiy o‘rta ta’lim maktabi belgilandi. Pedagog kasbiga layoqati va qiziqishi mavjud o‘quvchilar orasidan psixologik tashxislar, so‘rovnoma va tashxis test topshiriqlari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi bilan hamkorlikda tayyorlangan materiallar asosida 25 nafar o‘quvchilar aniqlanib, pedagogik sinflarda o‘qishga yo‘naltirildi.

Pedagogik sinflar faoliyati “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik sinflarni tashkil etish va bitiruvchilari bandligini ta’minlash tartibi to‘g‘risida” Nizomga muvofiq olib borilmoqda.

O‘quvchilarda boshlang‘ich pedagogik-psixologik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, pedagog kasbini ongli tanlash uchun sharoit yaratish, pedagog kasbiga qiziqishni oshirish va uning maqomini jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risidagi tasavvurlarni kengaytirish pedagogik sinflarni tashkil etishning maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligining 2024 sil 3 maydagi 140-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja asosida 2024-2025 o‘quv yilining 4 sentabridan boshlab ikki o‘quv yili davomida jami 136 soatlik pedagogik kasbi bilan bog‘liq o‘quv dasturi asosida ta’lim berilmoqda. “Kasbiy ta’lm” (1-modul pedagog kasbi olamida) darslari tashkil qilindi. Ushbu modulni o‘qitish uchun respublika pedagogika OTMning yetakchi professor o‘qituvchilari bilan xamkorlikda tayyorlangan "Pedagog kasbi olamida" pedagogik sinflar uchun o‘quv qo‘llanma (1-modul Pedagog kasbi olamida) tayyorlandi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik sinflar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, pedagog kasbiga kirish, pedagog kasbining ahamiyati, pedagog kasbining shakllanishi va rivojlanishi, O‘zbekistonda pedagog kasbining nufuzi, pedagogik qobiliyat asoslari, shaxsning rivojlanish psixologiyasi qonuniyatlari, pedagog kasbiga jamiyat tomonidan qo’yilgan zamonaviy talablar, pedagog mehnatining ijtimoiy ahamiyati, pedagogik faoliyat, pedagogning nutq madaniyati, pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyatni shakllantirish bosqichlari va metodlari, pedagogning muhim shaxsiy va kasbiy fazilatlari, pedagog shaxsining psixologik xarakteristikalari, pedagogik qobiliyat tarkibi, shaxsning o‘zini o‘zi anglash va idrok etish yo‘llari, shaxslararo munosabatva muloqotning psixologik asoslarini qamrab olgan.

O‘quv qo‘llanmada tarbiyachi, uning funksional vazifalari, tarbiyachi kasbining o‘ziga xosliklari, tarbiyachilik kasbining tarkibiy qismlari, MTTda tarbiyachining kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan talablar, tarbiyachining shaxsiy va kasbiy fazilatlari, MTT tarbiyachi yordamchisining funksional vazifalari, tarbiyachi yordamchining kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar, MTT va oila hamkorligi yo‘nalishlari, tarbiyalanuvchilarni MTTga kunlik qabul qilish va kuzatibqo’yishda ota-onalar bilan muloqot odobi, MTTda sanitariya-gigiena qoidalari haqida ma’lumotlar va tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Shuningdek, o‘zlashtirishning muhim natijasi sifatida bitiruvchilarda o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishning asosiy shakl va metodlari, pedagog kasbini tanlovini asoslantira olishi, pedagogik faoliyat jarayonlarini loyihalashtirish, o‘zining faoliyatini baholay olish va tahlil qilish, shaxsiy-kasbiy sifatlarini dastlabki diagnostikasini amalga oshirish, pedagog kasbiy talablariga o‘zining shaxsiy-psixologik xususiyatlari va imkoniyatlarini moslashtirish, pedagog kasbiga barqaror qiziqish, o‘zining kasbiy va shaxsiy rivojlanish strategiyasini belgilash va loyihalash malakalariga ega bo‘lishi kutiladi.

Pedagogik snf o‘quvchilari institutda tashkil etilgan “Ochiq eshiklar kuni” munosabati bilan o‘tkazlgan tadbirda institutida yaratilgan sharoitlar bilan yaqndan tanishdilar, o‘quvchilar institut professor-o‘qituvchilari tomonidan tashkil etilgan ma’ruza darslarida qatnashib, o‘z bilimlarini oshirish imkoniga ega bo‘ldilar. Shuningdek, o‘quvchilar institutning auditoriyalari, laboratoriyalari hamda ilmiy-amaliy markazlarida yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishib, oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish jarayoni, pedagogik yo‘nalishdagi kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘ldilar. Mana shunday tadbirlar o‘quvchilarning kelajak kasbini tanlashda to‘g‘ri qaror qabul qilishiga yordam berish bilan birga, ularning pedagogik sohaga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanlgan adabiyotlar

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 79-modda Vazirlar Mahkamasining 29.04.2024 yildagi «Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash choratadbirlari to‘g‘risida»gi 242-son qarori

4. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni